


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA
SPORT UNIVERSITETI**



**«SPORTCHI TALABALARNING ILMIY TADQIQOTCHILIK
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOY VA
TABIIY-ILMIY FANLAR INTEGRATSIYASI»
ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

2024 yil 15 mart

**НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
«ИНТЕГРАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННЫХ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В
РАЗВИТИИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ
СТУДЕНТОВ-СПОРТСМЕНОВ»**

15 марта 2024 года

Chirchiq-2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA
SPORT UNIVERSITETI**

**«SPORTCHI TALABALARNING ILMIY TADQIQOTCHILIK
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIIY VA
TABIIY-ILMIY FANLAR INTEGRATSIYASI»
ILMIY-AMALIY ANJUMANI
2024 yil 15 mart**

**НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
«ИНТЕГРАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННЫХ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В
РАЗВИТИИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ
СТУДЕНТОВ-СПОРТСМЕНОВ»
15 марта 2024 года**

rivojlanish va gavda tuzilishi, jismoniy va funksional tayyorgarlik) bo'yicha kompleks baholash kerak bo'ladi.

Olingan ma'lumotlar asosida inson salomatligi darajasini aniqlash mumkin. Jismoniy komillikka erishish jarayonini individuallashtirish uchun esa insonning shaxsiy xususiyatlarini bilish lozim. Buning uchun turli psixologik testlardan foydalanish mumkin.

Yuqorida bayon etilganlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkin. Pedagogik tadqiqotlar, tibbiy tekshirishlar va axborot ta'minoti usullari qo'llanilgan kompleks ma'lumotlar quyidagi masalalarni hal etishda yordam beradi.

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLAR

Yakubov Husniddin Muxitdinovich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
“Fakultetlararo ijtimoiy fanlar”
kafedrasi o'qituvchisi
husniddinyakubov10@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida ilm fanga bo'lgan munosabat, davlat boshqaruv tizimi o'sha davrdagi ijtimoiy falsafiy qarashlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Sohibqiron, davlat boshqaruvi, “Temur tuzuklari, rasadxona, Ziji Ko'ragoniy, yulduzlar, to'rt ulus tarixi, insonning qadr-qimmati, ma'naviy qiyofa, axloqiy sifatlar.

Temur va temuriylar davri insoniyat tarixida buyuk ishlarni o'zining yo'l boshchilari yetakchiligida, tarixning muayyan qisqa bosqichlarida ming yillarda qo'lga kiritish mumkin bulgan natijalarga erishilgan davrdir. Insoniyat tarixiga shu millatga mansub buyuk kishilarning o'chmas nomini bitildi, jaxon madaniyatini boyitdi, umubashariy taraqqiyotga katta hissa qo'shdi. Mugul bosqinidan ozod bo'lgan xalkimizning milliy daxosi eng yukori chukkiga ko'tarilgan davridir. Bu davr falsafasi xalkimizning soxibkiron Temur boshchiligida ozodlikka erishgan va mustakillikni saklash xamda mustaxkamlashuchun amalga oshirgan buyuk ishlarining ifodasidir. Bu xalkimizning markazlashgan davlat tuzish, milliy davlatchilikni tiklash va barkaror kilish, mustakil yashash orzularining ushalgan davridir. Uning falsafada xam ana shu jixatlar yakkol kuzga tashlanadi va bu meros bugungi milliy ong va istiklol mafkurasining falsafiy negizlari orasid aloxida urin tutadi. Urta Osiyoning mugullar tomonidan bosib olinishi mamlakatni gorat kildi, iktisod, madaniyat, sa'nat va ilm- fan soxasida tanaazzul ruy berdi. Jabr, zulm, zuravonlik natijasida xalkning turmushi keskin yomonlashdi. Mo'g'ullar zulmiga chek kuyishda xalk ommasining noroziligi, sarbadorlar boshchiligidagi ommaviy kuzgolonlar, ayniksa, soxibkiron

Amir Temurning faoliyati muxim ahamiyatga ega buldi. Mugullar urnatgan mustabid tuzumning Amir Temur dunyoga kelgan davrida yerli axoli urtasida chukur ijtimoiy va ma'naviy uygonish jarayoni borayotgan edi. Bu jarayon, "Tarixi, usha davridayok, ming yilliklar ka'riga ketgan buyuk xalk mustamlakachilik azobida yotaveradimi?" yoki "Mustakillik uchun kurash olib borishda davom etadi va ozodlikka erishadimi?"- degan asosiy savollar atrofida ruy berayotgan edi.

Amir Temurning ijtimoiy-siyosiy va jismoniy tarbiyaga oid qarashlari haqida, sohibqironning tarjimai holi, hayoti, davlat boshqaruvi hamda armiyasining tashkil topishini o'rganishda "Temur tuzuklari" muhim manba sanaladi [1]. Tuzuklar sohibqironga nisbat beradigan tarixiy risoladir. Asarda Chig'atoy ulusining ellik yildan ortiq davr (1342-1405)dagi tarixi haqida o'ta qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

Amir Temur zukko, tajribali siyosatchi davlat arbobi edi. U o'zi tuzmoqchi bo'lgan davlatning markaziy apparati va mahalliy hokimiyatining qaysi ijtimoiy toifalarga tayanishi, mansabdor shaxslar va ularning sifatlari hamda burch va vazifalarini oldindan belgilab bergan. "Tuzuklarda" keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, bir uchi Chinu Mochin va ikkinchisi uchi Shom hududida bo'lgan Amir Temur davlatida bor yo'g'i yetti nafar vazir el-yurtning muhim ishlarini, kunda chiqib turadigan muammolarni, raiyat ahvolini, olingan hosil, daromadning miqdori, soliqlar va davlat xarajatlari, el-yurtning obodonchiligi va ahvolining farovonligi qay darajada ekanligidan oliy hukmdorni xabardor qilib turgan. Amir Temurda, manbalardan ochiq-oydin ko'rinib turibdiki, yana oliyjanoblik hislati bo'lganki, u boshqalarning gunohini kechira bilgan. Bu haqda "Tuzuklar"da qo'yidagicha aytiladi, "Menga yomonliklar qilib, boshim uzra shamshir ko'tarib, ishimda ko'p ziyon zarar yetkazganlarni ham tavba-tazarru qilib iltijo bilan kelganlarida hurmatlab, yomon qilmishlarini xotiramdan o'chirdim. Martabalarini oshirdim". "Har qanday odam mening adolat devonidan panoh topgan ekan, gunohi bo'lsa ham uni kechirsinlar. Ikkinchi, uchinchi marta yana gunoh qilgudek bo'lsa, u holda gunohiga yarasha jazolasinlar" degan edi hazrati sohibqiron o'z "Tuzuklarida". Amir Temur ochko'z, ziqna, yovuz va nafsi yomonlarni yoqtirmasdi. Ayniqsa valine'matini unutib, boshqaning xizmatiga yollanmoqchi bo'lgan odamlarni yomon ko'rardi. U qaysi mamlakatni bo'ysundirsa, o'sha mamlakatdan yetishib chiqqan bilimdon kishilarga o'z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini yaratib bergan.. Kuch adolatdadir tamoyiliga hamisha amal qilganki, natijada hech kim nohaq jazolanmagan. Yurtda tinchlik va osoyishtalik xukm surishi yo'lida barcha uchun teng bo'lgan choralarni ko'rgan. Tartib buzarlarni o'z vaqtida qonuniy jazolaganki, bu holat qayta takrorlanmasligi uchun boshqalarga o'rnak vazifasini o'tagan. Amir Temurning nafaqat o'zi balki, uning avlodlari ham bobolari qoldirgan insonparvarlik ishlarini olib bordilar. Ular ham sohibqiron singari o'zlari xukmronlik qilgan mamlakatlarida ilm-fanning rivojiga, insonlarning turmush tarzini yaxshilashga, tartib intizomni yo'lga qo'yishda, mamlakatni obod qilishga katta e'tibor qaratdilar. Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Bobur, Akbarshohlar ana shular jumlasidandir.

Markaziy Osiyo tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fikr va g'oyalar tarixida Amir Temur nabirasi Ulug'bekning merosi muhim o'rin tutadi. Mirzo Ulug'bek nafaqat odil hukmdor, balki ilmu-fan taraqqiyotida homiylik etuvchi shaxs, buyuk astronom, matematik, muhandis, kimyogar ham edi. Mirzo Ulug'bek 1394 yil, 22 martda

tug'ildi. U yoshligidanoq Saroymulk-Bibixonimning tarbiyasini olib, Aflotun, Arastu, Ptolomey, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalarning asarlarini mutolaa etib ulg'aydi. Amir Temur unga alohida e'tibor qaratib saroydagi suhbatlarga, chet ellardan kelgan elchilar bilan bo'ladigan suhbatlarga ishtirok etishiga ruxsat berardi. Nabirasining olim bo'lib yetishishiga rahnomolik qilgan va shunga erishgan. U homiylik qilgan davrda Samarqandda obi rahmat anxori yonida rasadxona, ko'plab madrasalar va machitlar, turli ilm o'choqlari qurilgan, 1425-1428 yillarda bitkazilgan bu rasadxona o'zining zamonaviyligi va asbob-uskunalari jihatidan benazir edi. Ulug'bekdan oldin ham undan keyin ham biror zamonda ana shunday rasadxona boshqa qurilmadi. Naqshi jahon nomini olgan bu rasadxona tarixga o'yilgan Mirzo Ulug'bekdan qolgan oltin meros bo'lib qoldi. Mirzo Ulug'bek o'zining astronomik kuzatishlarini "Ziji ko'ragoniy" deb atalmish jadvalda mujassam yetgan bo'lib, unda 1018 ta yulduzlarni aniq kodinatalarini beradi, ko'plab, yulduzlarning nomini va ta'rifini keltiradi. Mirzo Ulug'bek o'zining ma'rifatparvarligi bilan mashhurdir. Uning zamonida "Shohi zinda" "Go'ri Amir" maqbaralari ansambllari, Registonda katta xonaqa, bir necha xammom va shifoxonalar hamda kutubxona qurildi. 1420 yilda Buxoro va Samarqandda 1432-1438 yillarda G'ijduvonda madrasalar qurib bitkazildi. Madrasalarda diniy va dunyoviy bilimlar berib borildi. U Buxoroda qurdirgan madrasalaridan birining peshtoqiga (arab tilida) "Har bir muslim va muslimaning ilm olishi ham qarz, ham farzdir" deb yozdirgan. U "Chihl Ustun", "Bog'i maydon" kabi bir necha bog'lar barpo etadi. Uning davrida xunarmandlik, ishlab chiqarish hamda savdo rivojlantirildi. U san'at va adabiyot bilan ham shug'ullanar, san'at ahillari va shoirlarga homiylik qilar, ko'p vaqt Nizomiyning "Hamsa"sini mutolaa qilardi [2].

Abdurahmon Jomiy Temuriylar saltanati hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda badiiy adabiyot ham yangi bosqichga ko'tarildi. Shu davrda fors-tojik adabiyoti o'zining yangi rivojlanish pog'onasiga erishgan bo'lsa, o'zbek adabiyoti A.Navoiy, Mavlono Lutfiy, Hofiz Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Sayyid Qosimiy, Yaqiniy ijodlari misolida o'z taraqqiyotining eng yuksak bosqichiga ko'tarildi. Abdurahmon Jomiyning yetti dostonidan iborat to'plamiga "Haft avrang" ("Yetti taxt") deb nom qo'yar ekan, temuriylar sulolasidan yetti shoh Amir Temur, Xalil Sulton, Shohruh, Ulug'bek, Abulqosim Bobur, Abu Said, Mirzo Husayn Bayqaroni ko'zda tutgan bo'lsa. Jomiy kundalik hayotda oddiy, darvishona yashasa ham, biroq shoh unga aloqador kishilarning hatto asarlari orqali tanigan boshqa mamlakat podsholarining unga muruvvati katta edi. Shuning uchun u o'ziga tushgan daromadlar hisobiga bir qancha binoyi xayriyalar, shu jumladan, Hirotda ikki madrasa va xonaqoh, tug'ilgan shahari - Jomda bir masjid qurish imkoniga ega bo'lgan. Abduruxmon Jomiy 1492 yili shamollash natijasida xastalanib, 78 yoshida hayot bilan vidolashgan. Uning dafn marosimini Navoiy boshqarib, podshoh Xusayin Bayqaro esa mamlakatda bir yil motam e'lon qildi.

Mavlono Lutfiy o'zbek mumtoz adabiyotining atoqli nomoyondasi bo'lib, o'zining o'zbek va fors-tojik tillardagi asarlari bilan Sharqda katta shuhrat qozongan so'z san'atkoridir. Xususan Lutfiyni yaqindan bilgan, u bilan ustoz va shogirdlik rutbasi bilan bog'langan A.Navoiy asarlarida keltirilgan ma'lumotlar g'oyat qimmatlidir. Sharq adabiyoti tarixida Lutfiy taxallusi bilan asarlar yaratgan ijodkorlar

ko'pgina bo'lib, "Qamus ul-a'lam" asarida ulardan ayrimlari sanab o'tilgan. Mavlono Lutfiy "Malik al-Kalom", yani "So'z podshosi"(A.Navoiy) unvoni bilan shuhrat qozongan. Oddiygina xayot tarziga o'rgangan, darveshlarga xos xokisorlik bilan mo'tabarlik kasb yetgan bu shoirning she'rlari chuqur fikrlarni sodda so'zlar yordamida yuqori badiiy bo'yoqlarda ifodalay olishi bilan ajralib turardi. Lutfiyning adabiy merosi orasida dostonlari alohida o'rin egallaydi. Shulardan biri 14 yilda yaratilgan. "Gul va Navro'z" dostonidir. Sharq madaniyati tarixiga oid manbalarda Lutfiyning ahloq odob mavzuida "Mashqun ul-haqoyiq" nomi bilan ham asar yaratganini eslanadi. Lutfiyning hamisha yaxshilikka umidvor bo'lgan oshiq nidolarini o'z ichiga olgan shoh baytlaridan birida quyidagi talqinga ko'zimiz tushadi.

Xulosa shundan iboratki, Temur va temuriylar davrida ilm fan, jumladan adabiyot ham yuksak darajada rivojlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Temur tuzuklari" Nashriyot: Fan va texnologiya nashriyoti. 2014.
2. Yaxshilikov J.Ya., Axadov Sh.A. Temuriylar ma'naviyati. T.: "Fan", 1999. -163 b.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". " O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2024.- 518b.

«ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ БОРЬБЫ С ДОПИНГОМ В СПОРТЕ»

**студента 3 курса группа
TN-01-21- Siddikova Maftunabonu Alisher kizi
Нуруллаева Дж.С.-ст.преп.,**

С первых дней своей независимости Узбекистан развивает физическую культуру и спорт по инициативе и под руководством нашего руководства в рамках приоритетных направлений государственной политики. Закон Республики Узбекистан "О физической культуре и спорте", принятый в новой редакции в 2015 году, исторически занял особое место как стратегическая программа движения физической культуры и спорта. В результате особое внимание было уделено укреплению здоровья населения, воспитанию физической подготовленности молодежи и студентов, повышению квалификации спортсменов на основе требований периода и международных стандартов, а главное, воспитанию здорового поколения через здоровый образ жизни.

Тот факт, что спортсмены употребляют запрещенные вещества, является одной из самых актуальных проблем в мировом спорте. Эти вещества опасны для здоровья и жизни человека. Повышение физической и умственной силы с помощью допинга полностью противоречит принципам олимпийского движения и спорта.

MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH JARAYONLARI	
<i>Raxmatullayev X.Sh., Kozoqov R.T.</i> TALABALARNING PEDAGOGIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH.	106
<i>Qurbonov M.O., Kozoqov P.</i> O'QUV JARAYONINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA TASHKIL ETISH YO'LLARI.	108
<i>Musurmonova Z.A., Jabbarova S.R.</i> SPORT TO'GARAKLARINING IJTIMOIIY AHAMIYATI.	110
<i>Yakubov H.M.</i> CHDPU. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDAGI IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLAR	112
<i>Siddikova M., Nurullayeva Dj.S.</i> ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ БОРЬБЫ С ДОПИНГОМ В СПОРТЕ	115